

BUXORO VILOYATIDA SANOAT ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Toshov Mirzabek Hakimovich

Osiyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi


Annotatsiya. *Mazkur tezisda Buxoro viloyatida sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va muammolari tahlil qilingan. Hududning resurs salohiyati, investitsion muhit va sanoat korxonalarining rivojlanish darajasi o‘rganilib, ishlab chiqarishni kengaytirish, innovatsiyalarni joriy etish hamda eksport salohiyatini oshirish zarurligi asoslab berilgan. Shu bilan birga, infratuzilma va kadrlar bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *sanoat ishlab chiqarish, Buxoro viloyati, investitsiya, innovatsiya, infratuzilma, eksport, raqobatbardoshlik.*

Buxoro viloyati sanoatida oxirgi yillarda ishlab chiqarish hajmlarining o‘shishi kuzatilganiga qaramasdan, sanoat tarmoqlarining sifat jihatdan rivojlanishi, investitsiya samaradorligi va qo‘shilgan qiymat yaratish darajasida qator tizimli muammolar mavjud. Ushbu muammolarni aniqlamasdan va ularni ilmiy asosda tasniflamasdan turib, sanoat rivojlanishining istiqbol yo‘nalishlarini belgilash imkoni mavjud emas. Shu sababli Buxoro viloyati sanoati va sanoat tarmoqlari rivojlanishidagi asosiy muammo va kamchiliklarni ilmiy jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘lib hisoblanadi.

Amalga oshirilgan tahlillarga ko‘ra, Buxoro viloyati sanoati ishlab chiqarishining hududiy tarkibida nomutanosiblik mavjud bo‘lib, unga ko‘ra, 2010 yilda ikkita hududning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jamiga nisbatan 60.0 foizni (Buxoro shahrida sanoat ishlab chiqarishning jamiga nisbati 19.4 foiz hamda Qorovulbozor tumani esa 40.6 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, mazkur yilda viloyatdagi qolgan 11 ta hududning ulushi esa, 40 foizni tashkil etdi. 2024 yilga kelib ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiya darajasi jamiga nisbatan atigi 2.7 foiz punktga pasaydi (1-rasm). Mazkur holat ishlab chiqarishning hududiy tarkibida salbiy nisbatlar shakllanganligini ko‘rsatib beradi va bu esa ushbu tarkibni takomillashtirishni talab etadi.

Albatta, mazkur nomutanosiblik hududlarning eng birinchi navbatda qiyosiy ustunligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, biroq bu barcha hududlarda ham ishlab chiqarish faqat tabiiy imkoniyatlar va shart-sharoitlarga (xom ashyo, kadrlar salohiyati, mehnat resurslari, hududlarning joylashuvi va ishlab chiqarish va hokazo) bevosita bog‘liq degan xulosani shakllantirish imkoniyatini bermaydi. Bundan kelib chiqadiki, Buxoro viloyati tumanlarida mavjud sanoat salohiyati va imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotgan ekanligini ko‘rsatib beradi.



1-rasm. Buxoro viloyati sanoati ishlab chiqarishining hududiy konsentratsiya darajasi va uning o‘zgarish dinamikasi
(umumiy tarkibga nisbatan foizda)¹

Buxoro viloyati sanoati ishlab chiqarishining hududiy tarkibidagi nomutanosiblik holatlarini viloyat ishlab chiqarish sanoatining har bir tarmoq tarkibida ham kuzatish mumkin. Jumladan, 2025 yilning statistik ma’lumotlariga ko‘ra, viloyatda ichimliklar ishlab chiqarishda hududiy konsentratsiya darajasi jamiga nisbatan 91.2 foizni tashkil etadi va bunda Buxoro shahri (jamiga nisbatan 73.2 foiz) hamda Vobkent tumanining (jamiga nisbatan 18.1 foiz) ulushi yuqori hisoblanadi. Shuningdek, mazkur yilda yog‘och va po‘kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to‘qish uchun materiallaridan buyumlar ishlab chiqarish sanoatida hududiy konsentratsiya darajasi jamiga nisbatan 87.7 foizni tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval

Buxoro viloyati ishlab chiqarish sanoatida hududiy konsentratsiya darajasi va unda tumanlarning hissasi
(2025 yil, umumiy tarkibga nisbatan foizda)²

Ishlab chiqarish sanoati tarmoqlari	Ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiya darajasi (jamiga nisbatan foizda)	Konsentratsiya (yig‘ilish) darajasi yuqori bo‘lgan hududlar soni	Konsentratsiya darajasi yuqori bo‘lgan hududlar	Ishlab chiqarish sanoatining umumiy tarkibida qolgan hududlarning ulushi (jamiga nisbatan foizda)

¹ Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси расмий веб-саҳифа маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоблари.

² Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси расмий веб-саҳифа маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб-китоблари.

Ichimliklar ishlab chiqarish	91.2	2	Buxoro shahri va Vobkent tumani	8.8
Yog‘och va po‘kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to‘qish uchun materiallaridan buyumlar ishlab chiqarish	87.7	3	Buxoro shahri, Kogon va Jondor tumanlari	12.3
Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish	80.2	2	Buxoro shahri va G‘ijduvon tumani	19.8
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	98.9	1	Qorovulbozor tumani	1.1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	71.4	2	Vobkent va Kogon tumanlari	28.6
Metallurgiya sanoati	80.7	2	Kogon shahri va Qorako‘l tumani	19.3
Kompyuter, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	83.1	2	Buxoro shahri va Jondor tumani	16.9
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	97.2	2	Buxoro shahri va Shofirkon tumani	2.8
Boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish	91.7	2	Olot va Qorovulbozor tumanlari	8.3
Mebel ishlab chiqarish	86.9	4	Buxoro shahri, G‘ijduvon, Romitan va Jondor tumanlari	13.1
Mashina va uskunalarni ta’mirlash va o‘rnatish	88.4	4	Buxoro shahri, Olot, Kogon va Jondor tumanlari	11.6

Demak, olingan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiya darajasi eng yuqori bo‘lgan sanoat tarmoqlari bu - ichimliklar ishlab chiqarish (jamiga nisbatan 2 ta hududning ulushi 91.2 foiz), boshq transport uskunalari ishlab chiqarish (jamiga nisbatan 2 ta hududning ulushi 91.7 foiz), elektr uskunalari ishlab chiqarish (jamiga nisbatan 2 ta hududning ulushi 97.2 foiz) hamda koks va neftni qayta ishlar mahsulotlari ishlab chiqarish (jamiga nisbatan 1 ta hududning ulushi 98.9 foiz) sanoat tarmoqlaridan iborat.

Tahlillarning ko‘rsatishicha, Buxoro viloyati ishlab chiqarish sanoatida hududiy konsentratsiya darajasi yuqori bo‘lgan hududlar sirasiga Buxoro shahri va Jondor tumanlarini

kiritish mumkin. Bu esa, mazkur hududlarda ishlab chiqarish salohiyatidan yetarli darajada foydalanilayotganligidan dalolat beradi.

Muallif fikricha, sanoat ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiya darajasi, ya’ni ayrim hududlarda ishlab chiqarish ulushining yuqori bo‘lishi quyidagi **asosiy iqtisodiy, tabiiy, institutsional va infratuzilmaviy omillar** bilan izohlanadi:

Tabiiy-resurs salohiyati. Foydali qazilmalar, energiya resurslari, suv manbalariga yaqin hududlarda xom ashyoga bog‘liq sanoat tarmoqlari (tog‘-kon, kimyo, metallurgiya) ko‘proq joylashadi va ishlab chiqarish konsentratsiyasi yuqori bo‘ladi.

Ishlab chiqarish va transport infratuzilmasining rivojlanganligi. Temir yo‘l, avtomobil yo‘llari, energiya ta’minoti va logistika tarmoqlari yaxshi rivojlangan hududlarda sanoat korxonalarini joylashtirish xarajatlari kamayib, ishlab chiqarishning jamlanishi tezlashadi.

Mehnat resurslari va inson kapitali. Aholisi zich, malakali ishchi kuchi mavjud hududlarda sanoat korxonalarini faolroq joylashadi, bu esa hududiy konsentratsiyaning oshishiga olib keladi.

Aglomeratsiya samaralari. Korxonalarining bir hududda jamlanishi natijasida kooperatsiya, ixtisoslashuv, innovatsiya almashinuvi va bozorga yaqinlik samaralari yuzaga kelib, sanoat ishlab chiqarishni yanada ushbu hududga jalb qiladi.

Investitsiya muhiti va institutsional sharoitlar. Erkin iqtisodiy zonalar, sanoat zonalari, soliq va bojxona imtiyozlari mavjud hududlarda investitsiya faolligi yuqori bo‘lib, ishlab chiqarishning hududiy jamlanishi kuchayadi.

Bozorlarga yaqinlik va iste’mol salohiyati. Yirik iste’mol bozorlari yoki eksport yo‘laklariga yaqin hududlarda sanoat mahsulotlarini sotish oson bo‘lib, korxonalar shu hududlarda to‘planadi.

Tarixiy shakllangan ishlab chiqarish ixtisoslashuvi. Ayrim hududlarda sanoat an’anaviy ravishda rivojlangan bo‘lib, mavjud korxonalar, kadrlar va infratuzilma yangi ishlab chiqarishlarni ham shu yerga jalb etadi.

Davlat sanoat va hududiy siyosatining yo‘nalishlari. Davlat tomonidan ustuvor deb belgilangan hududlarda sanoat loyihalarini joylashtirish qo‘llab-quvvatlanib, ishlab chiqarish konsentratsiyasi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, sanoat ishlab chiqarishining hududiy konsentratsiya darajasi tabiiy resurslar, infratuzilma, mehnat bozori, aglomeratsiya samaralari va davlat siyosatining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi hamda hududiy iqtisodiy nomutanosibliklar va ixtisoslashuv jarayonlarini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari to‘plami. – T.: O‘zbekiston, 2020–2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. *Hududlar bo‘yicha sanoat rivoji statistik to‘plami.* – T., 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *Hududiy rivojlanish*

hisobotlari. – T., 2022.

4. Porter M.E. *Competitive Advantage of Nations.* – New York: Free Press, 1990.
5. Krugman P., Obstfeld M. *International Economics: Theory and Policy.* – Pearson, 2018.
6. Todaro M.P., Smith S.C. *Economic Development.* – Pearson Education, 2020.
7. Musayev A.A. Korxonalarda sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish yo‘nalishlari // *Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali.* – T., 2022.
8. Xolbekov B.X. Hududiy sanoatni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. – T.: Fan, 2021.
9. Buxoro viloyati statistika boshqarmasi. *Sanoat ko‘rsatkichlari bo‘yicha yillik hisobot.* – Buxoro, 2023.
10. World Bank. *Uzbekistan Country Economic Update.* – Washington DC, 2023.